

**RIVOJLANISH MARKAZLARI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI  
BOLALARDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

*O'tasheva Lola Shoturayevana  
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
Taylanova Malohat O'rozbek qizi  
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** maktabgacha talim tashkilotlarida bola shaxsini rivojlanishi va shaxs kamolotida o'yinlarning ahamiyati juda muhim. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida talimiylar va tarbiyaviy bilimlarni o'zlashtirib boradi. O'yin jarayonida bola tengdoshlari bilan ko'proq muloqotga kirishadi va kattalar bilan bog'liqligi ayni shu jarayonda passivlashadi. Natijada bolada mustaqil fikr yuritish, qaror qabul qilish kabi mustaqillik ko'nikmalari shakllanadi.

**Kalit so'zlar:** *o'yin, bola psixikasi, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar, tafakkur, shaxs, qoida.*

Hozirgi rivojlanayotgan ayni davrda Maktabgacha talim tashkilotlarida pedagoglar tomonidan turli qiziqarli metodlar va qiziqarli o'yinlar asosida talim jarayonlari tashkil etilib kelinmoqda. O'yin tarbiyaning hamma shakllaridan ustunlik qiladi, chunki u xuddi bolalarning butun hayotini, shaxsiy faolligini yo'lga qo'yish uchun, mustaqilligini namayon etish uchun imkoniyatlar beradi. Pedagog o'yinni boshqarib, undan tarbiya maqsadlarida foydalanadilar. Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin. Qanday qilib o'yin tarbiya vositasi bo'lishi mumkin?

-birinchidan: bolalarni jismonan o'stirish, bolalar bog'chasida emotsional muhit yaratishda bo'lsa.

-ikkinchidan: o'yindan sensor tarbiya vositasi sifatida, manaviy tafakkur, nutq, hayol, xotirani taraqqiy ettirish, tevarak-atrofdagi, hayot haqidagi tasavvurlarni kengaytirish va mustahkamlashda namayon bo'ladi.

-uchinchidan: o'yin jarayonida bolalar xulq atvor jarayonlarini shakllantirib boradilar.

Didaktik o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariiga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mayjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatları takomillashadi. O'yin

qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o‘yin mazmunini boyitadi.

Didaktik o‘yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o‘yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o‘yinlar mashg‘ulot jarayonida va o‘yindan tashqari vaqtarda guruh yoki yakka-yakka o‘tkaziladi. Bunda o‘yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi.

Didaktik o‘yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Didaktik o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud: a) buyum va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan; b) stol-bosma; d) og‘zaki so‘z o‘yinlari.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini o‘tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilimlarga tayanadi.

Bolalar tasvirlamoqchi bo‘lgan predmet haqida tasavvurga ega bo‘lsalar, rasm, loy, applikatsiya ishlarida samarali natjalarga erishish mumkin. Tasviriy faoliyat turlarining bolalar o‘yini bilan bog‘liqligi.

O‘yin bola xayotida katta o‘rin egallaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidaturli xil o‘yinlar o‘tkaziladi: mazmunli – rolli, dramalashtirish, didaktik va harakatli.

Har qanday o‘yin bolaga zavq bag‘ishlaydi. Shunday ekan, tasviriy faoliyat ham o‘yin bilan bog‘lab borilsa, u bolalarga qiziqarli va yoqimli bo‘ladi va emotsiyonal javobni uyg‘otadi, bu esa bolalar ishlarini sifatini yaxshi ta’sir etadi.

Mashg‘ulotlarda o‘yinli xolatlarni tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Bolalar bunday mashg‘ulotlarda erkin harakat qiladilar. O‘yin usuli barcha guruxlarda qo‘llaniladi. Bu usul yordamida yyengil quvnoq muxit yaratadi. Bolalarning mashg‘ulotga qiziqishi o‘tadi, tasviriy faoliyat ko‘nikma va malakalari samaralilik egallaydi. O‘yin shaklida o‘tadigan mashg‘ulot bolalarni qamrab oladi, ularning etsetik, axloqiy jixatdan tarbiyalanishlariga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

Rasm, loy, qirqib yopishtirish o‘yinchoq orqali o‘yin bilan bog‘langan bo‘ladi. O‘yinchoqni chizish, yasash, qirqib – yopishtirish barcha yosh gurux bolalarida zavq uyg‘otadi, o‘yinchoqlarni tasvirlash bo‘yicha mashg‘ulotlar yil davomida bir necha o‘tkazilishi mumkin. Lekin ularning shakli turlicha bo‘lishi zarur. Bolaning xayotida syujetli – rolli o‘yinlar muhim o‘rin egallaydi.

Shuning uchun tasviriy faoliyatning o‘yin bilan bog‘lanishi bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Syujetli – rolli o‘yinlarni mashg‘ulot mazmuniga kiritish bolaning tasviriy faoliyatiga qiziqishini, bajarayotgan ishining sifati yaxshilanadi.

O‘yining borishi, o‘yin obrazlarini tasvirlash, quruq rasm chizish, loydan yasash, qirqib yopishtirish ishlaridan ko‘ra bolalar uchun qiziqarlidir. Bolaning kechinmalariga o‘yin bo‘yoq beradi. bola o‘z o‘yinli rasmlarida to‘la va yorqin ifodalanishiga intiladi. Tarbiyachi esa unga bunda yordam berishi kerak. Rasm, loy, qirqib yopishtirish bilan dramalashtirib, o‘yinlarini uyg‘unlashtirib olib borish bolalarni har tomonlama

rivojlantirishdek, vazifani amalga oshirishga katta imkoniyat yaratadi.

Dramalashtirish o‘yinlar uchun ko‘pgina narsalarni bolalarning o‘zлari yasashlari mumkin: dekoratsiya yoki uning qismlari, kotsyum detallari, maskalar. Tarbiyachining rasm, qirqib – yopishtirish mashg‘ulotida bolalarga o‘ynagan o‘yinlarini tasvirlash topshirig‘ini berish, ularda tasviriy faoliyatga jonli qiziqishini uyg‘otadi. Tasviriy faoliyatning dramalashtirish o‘yini bilan birlashtirib, olib borish o‘rta guruhdan boshlanadi.

Rasm, loy, qirqib – yopishtirish mashg‘ulotlarida bolalarga qaxramonlar obrazlarini ifodalab berish vazifasi topshiriladi. O‘ynagan harakatli o‘yinlarini tasvirlash taklifi bolalarda zavq uyg‘otadi. Bu o‘yinlarni mazmunini faqatgina rasmda emas, balki qirqib yopishtirish uchun ham oson tasvirlash mumkin.

Tarbiyachi bolalarda o‘ynash ko‘nikmasini shakllantirib boradilar. Avvl yakka tartibda so‘ng umumiylar tarzda turli o‘yinlarni tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagagi bolalar turli o‘yinlardan foydalanib o‘ynashlari mumkin. Masalan:

1. Syujetli-rolli o‘yinlar
2. Harakatli o‘yinlar
3. Didaktik o‘yinlar.

**Syujetli-rolli o‘yinlar.** Rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yin turlaridan biri. Ushbu o‘yinlar ilk maktabgacha yoshdagagi bolalarga rollarni taqsimlagan holda tashkil etish mumkin. Rollarni taqsimlashda bolalar adabiyotiga asosan adabiy asarlardan unumli foydalanish mumkin. Adabiy asarlar asos qilib olinadigan syujetli-rolli o‘yinlarni dastlab tarbiyachining tashabbusi bilan tashkil qilinadi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning o‘zaro munosabatlarini o‘z holiga tashlab qo‘yish yaramaydi. Chunki bu yoshda bola o‘z tengdoshlariga hamisha ham o‘z fikrlarini tushuntirib bera olmaydi, mustaqil ravishda bir-birlari bilan kelishib ham keta olmaydilar.....

**Harakatli didaktik o‘yinlar.** Maktabgacha yoshdagagi bolalarda harakatli, didaktik o‘yinlar, musiqali o‘yinlarni ham tarbiyachi tashkil qiladi. ushbu o‘yinlar mashg‘ulot va mashg‘ulot bo‘limgan paytda ham o‘tkaziladi. Harakatli, didaktik va musiqaviy-didaktik o‘yinlarning hammasi qoidali o‘yinlar degan umumiylar nom bilan ataladi. Syujetli-rolli o‘yinlardan farqli o‘laroq bu o‘yinlarda qoidalar oldindan beriladi va ularning sharti o‘z hatti-harakatlarini qoidalarga albatta bo‘ysundiradigan bo‘ladi. Bolalarga berilgan qoidalarga muvofiq ish tutish xislati asta-sekin tarkib topadi; dastlabki paytlarda bu narsa syujet bilan uzviy ravishda bog‘langan bo‘ladi. Dastlabki harakatli o‘yinlar, tom manoda qoidali o‘yinlar emas. Ular taqlid harakterini kasb etib, bolalarga tanish biror obrazga bog‘liq bo‘ladi. Ular “Qushlar va qushlar”, “Quyosh va yomg‘ir” kabi bir qator o‘yinlardir. Bunday o‘yinlar bolalarni qoidali o‘yinlar jarayonida boshqa bolalar bilan bir vaqtning o‘zida harakat qilishga, tarbiyachining ko‘rsatmasi bilan ish qilishga o‘rgatadi. Demak bundan ko‘rinadiki, tarbiyachi eng avvalo bolalar bilan qoidali o‘yinlarni tashkil qilishdan avval syujetli-rolli va taqlidiy

o‘yinlarni to‘g‘ri tashkil etishlari lozim va boladataqlid qilish orqali qoidali o‘yinlar malakasi rivojlanib boradi. Tarbiyachi taqlid harakteridagi o‘yinlar bilan bir qatorda “Yugurib keling”, “Menga etib oling”, “Soqqachalarni savatga yig‘ing” singari o‘yinlarni ham o‘ynatishlari mumkin. Bu ko‘rinishdagi o‘yinlarda qoidalar yo‘q bo‘lsada bolalarni bevosita ishga undaydigan og‘izaki ko‘rgazmalar mavjud. O‘yinlar davomida qoidalar joriy qilinayotgan jarayonda bolalarga qanday harakat qilish kerakliklari tarbiyachi tomonidan aytib o‘tiladi. Masalan, “Chapak chalishim bilan qushchalar mening yonimga uchib kelishadi” kabi. Bolalar qanchalik kam bo‘lsa qoidalar ham qisqa bo‘lishi lozim. Tarbiyachi o‘yining qoidalari va mazmunini qisqa va qiziqarli qilib tushuntirishlari kerak. O‘yinlarni jonli va tasirchan qilish maqsadida turli belgilar va atributlardan foydalanishlari mumkin. Belgilar oddiy va bolalar uchun tushunarli bo‘lishi kerak.

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida qoidali o‘yinlarni mustaqil o‘ynash ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi. Tarbiyachi harakatli o‘yinlarni asosan sayrlarda, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘tkazadi. Bu o‘yinlarni tashkil qilishda o‘yinlarning asta-sekin murakkablashib borishida, har xil harakatlar qo‘llaniladigan o‘yinlardan foydalanishda bolalar jamoasini to‘g‘ri tashkil etish lozim. Maktabgacha yoshidagi bolalarning tafakkuri va rivojlanishi o‘ziga xos darajada rivojlanib boradi. Bunda bola hayotida o‘yining roli va ahamiyati juda katta. Kichik yoshdagи bolalarda o‘yinlar syujeti tor darajada bo‘ladi. Bola katta bo‘lgani sari o‘yin syujeti ham katta bo‘lib boradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Shoturayevna U. L. Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 12. – C. 395-397.
2. Shoturaevna L. U. Social and pedagogical activities in preschool educational institutions //JournalNX. – 2021. – T. 6. – №. 11. – C. 412-415.
3. Shoturayevna U. L. The role and content of sensory education in the organization of preschool education //Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – 2021. – T. 1. – №. 1. – C. 7-8.
4. SHOTURAYEVNA U. L., QIZI K. M. A. PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 130-133.
5. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – C. 3-3.
6. Toshpulatov F. USE OF GEOMETRIC PATTERNS AND THEIR TYPES FROM ELIMINATIONS OF DRAWING AND APPLIED ART IN ARCHITECTURAL FACILITIES //Физико-технологического образования. – 2022. – T. 1. – №. 1.
7. Baratovna T. R., Abdurakhmanova S. LEGAL AND REGULATORY BASIS OF ORGANIZING ACTIVITY CENTERS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //E Global Congress. – 2023. – T. 2. – C. 65-68.

8. Турапова Р. Developing dialogic speech of pre-school children on the basis of a variative approach //Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 4.
9. Urolovich T. F. et al. TASVIRIY SAN AT DARSLARIDA TASVIRNI TO G RI CHIZISHDA PERSPEKTIV POZITSION VA METRIK MASALALARDAN AMALDA TO GRI FOYDALANISH //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects. – 2022. – С. 41-44.
10. Baratovna T. R. Developing Dialogic Speech of Pre-School Children on the Basis of a Variative Approach //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 272-275.
11. Urolovich T. F. et al. CHIZMA GEOMETRIYA TA'LIMI JARAYONIDA TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 279-283.
12. Toshpulatov F. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHIZMACHILIK FANINI O 'QITISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI //Физико-технологического образования. – 2022. – №. 4.
13. Toshpulatov F. CHIZMACHILIK FANINI TABIIY HODISALAR BILAN AMALIY BOG'LIQLIGI //Физико-технологического образования. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
14. Toshpulatov F. QADIMIY GRIX VA O 'SIMLIKSIMON (ISLIMIY) NAQSH ELEMENTLARINING GEOMETRIK TAHLILI //Физико-технологического образования. – 2022. – №. 4.
15. Toshpulatov F. U. et al. Issues of Developing the Culture of Measurement in Drawing Lessons (In the Case of General Secondary Schools) //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 111-119.
16. Sharifovna Y. U. Professional Qualities of a Social Educator //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 171-175.
17. Kholmurodovich S. C. FUNDAMENTALS OF PENCIL AND ITS GOALS //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 6-7.
18. Baratovna T. R., Asal A. " IMPROVING THE METHODOLOGY OF CHILDREN'S DIALOGIC SPEECH DEVELOPMENT BASED ON A VARIATIONAL APPROACH"(IN THE CASE OF 5-6 YEAR OLD CHILDREN) //Conferencea. – 2023. – С. 45-51.
19. Avazova D. et al. MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNALOGIYASINING AHAMIYATI. – 2023.
20. Turapova R., Zebiniso E. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA BOLALARGA TA'LIM VA TARBIYA BERISHDA TARBIYACHI VA OTA ONALARINING O'RNI. – 2023.
21. Ra'no T., Maftuna B. Variative Approach Based on of Children Dialogic Speech Development Methodology Improvement //European Journal of Higher Education and Academic Advancement. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 99-104.

22. Marjonaxon S. et al. MAK TABGACHA TA'LIM TIZIMIDA ILG'OR INNAVATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. – 2023.
23. Turapova R. B. et al. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDAGI BOLALARNI NUTQINI RIVOJLANTIRISH. – 2023.
24. Rayhon A. et al. MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV FAOLIYATIGA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH. – 2023.
25. Toshpo'Latov F. U. et al. Bolalarni o 'yin texnologiyalari asosida kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirishda rivojlantiruvchi o 'yinlar //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
26. Toshpulatov F. U., Turopova R. B. Games that develop children's interest in the profession based on game technology //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 487-491.
27. Тошпұлатов Ф. У., Туропова Р. Б. Игры, которые развивают интерес детей к профессии на основе игровых технологий //Наука и образование. – 2021. – Т. 2. – С. 487-491.
28. Fazilat B. et al. Methods of Involving Children who are Not Included in Pre-School Education Organizations to Private Pre-School Education Organizations //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 18. – C. 104-118.
29. Mushtariy S. et al. Ways of Using Games in Forming the Activity of Preschool Children //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2023. – T. 18. – C. 119-135.
30. qizi Maktabgacha T. R. B. yoshdagи bolalarning badiiy estetik madaniyatini o 'yinlar orqali shakllantirish EURASIAN JOURNAL OF LAW //FINANCE AND APPLIED SCIENCES <https://doi.org/10.5281/zenodo.6341593>. – T. 6341593.
31. Sharifovna Y. U. Professional Qualities of a Social Educator //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 171-175.
32. Marjona N. et al. MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИNГ KITO BXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILA BILAN ISHLASH. – 2023.